



**ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK
YONDASHUVLARNING AHAMIYATI: SHAXSIY RIVOJLANISH,
MOTIVATSIYA VA IJTIMOIIY MOSLASHUV**

*The Importance of Psychological Approaches in Modern Education: Personal
Development, Motivation, and Social Adaptation*

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

Vahobova O'g'iloy Tolibjonovna Filologiya fakulteti talabasi

Munduzova Gulsanam Dostonbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida psixologik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Unda shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarda motivatsiyani kuchaytirish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonida psixologik yondashuvlarning tutgan o'rni yoritiladi. Shuningdek, emotsional intellekt, bugungi kunda hamma uchun tanish bo'lgan inklyuziv ta'lim va o'qituvchining psixologiyasi shaxsning har tomonlama rivojida muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Mazkur maqola pedagoglar, psixologlar hamda ta'lim psixologiyasi bilan shug'ullanuvchi talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Abstract: This article analyzes the importance of psychological approaches in modern education. It discusses the role of these approaches in supporting personal development, enhancing motivation, and aiding social adaptation. The article highlights how understanding students' psychological needs and applying differential methods can improve the effectiveness of teaching and learning. Furthermore, emotional intelligence, inclusive education, and the teacher's psychological competence are examined as key factors for the holistic development of students. This article is valuable for educators, psychologists, and students engaged in the field of educational psychology.

Kalit so'zlar: Ta'lim psixologiyasi, tarbiya, motivatsiya, ijtimoiy moslashuv, pedagogic psixologiya, inkluyiziv ta'lim, o'qituvchining roli.



Keywords: *Educational psychology, upbringing, motivation, social adaptation, pedagogical psychology, inclusive education, teacher's role.*

Insonlar jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida ta'lim va tarbiyani roli beqiyos. Har bir yosh avlod o'ziga xos, ya'ni iqtidoriga qarab maxsus ta'lim sohalariga yo'naltiriladi.

¹Pedagogik psixologiya – ta'lim va tarbiyaning ta'siri oqibatida o'quvchilar psixikasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni, o'quv materiallarining o'quvchilar yosh xususiyatiga mos kelishini, turli ta'lim metodlarining psixologik jihatdan samaradorligini, darsliklar, o'quv qurollari va maktab ishlarining tartibiga nisbatan bo'lgan psixologik talablar kabi muammolarni ham pedagogik psixologiya o'rganadi. Shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayoning tashkilotchisi bo'lgan – o'qituvchi shaxsini, uning pedagogic faoliyati xususiyatlarini ham o'rganadi.

Bola psixologiyasiga qarab maktablarda o'qitishning ham bosqichlar bo'lib, ular boshlanb'ich maktab yoshi, o'rta maktab yoshi, yuqori maktab yoshi kategoriyalarini o'z ichiga oladi. Bunday bo'linishdan maqsad bolalardagi psixologik rivojlanishiga qarab o'quv darsliklari, shuningdek, yosh xususiyatiga mos metodlardan to'g'ri foydalanish. Ayni paytda, zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda, har bir yosh psixologiyasi uchun zarur metodika va darsliklarni internet tarmoqlaridan ham bimalol topishimiz mumkin.

O'tgan ajdodlarimiz ham qomusiy asarlarida bola taraqqiyoti va tarbiyasi masalalari katta o'rin egallaydi. Umuman Sharq va G'arb madaniyatida ham psixologik-pedagogik mazmundagi asarlar XVII – XVIII asrlarda diniy-axloqiy negizda yozilgan. XVIII asrga kelibgina ma'lum uslubga ega bo'lgan ilmiy fikrlar vujudga kela boshladi. Hatto bizning muqaddis dinimizda ham ilm olish hamma uchun farz ekanligi aytib o'tilgan. Shuning uchun shaxs kamolotida ta'lim va tarbiyani mavqei beqiyos deymiz.

Endi esa zamonaviy ta'lim tizimiga kelsak, zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ham o'z oldiga maqsad qilib

¹ Xolikov, U. Yosh va pedagogik psixologiya fanidan ma'ruzalar matni. Navoiy: Navoiy davlat pedagogika instituti, 2015. Institut ilmiy kengashi qarori bilan tavsiya etilgan.



qo'ygan. Bu jarayonda psixologik yondashuvlar alohida o'rin tutadi, chunki har bir o'quvchining rivojlanish darajasi, ehtiyojlari va qobiliyati bir-biridan farq qiladi. Shaxsiy rivojlanish, motivatsiya va ijtimoiy moslashuv singari omillar bevosita psixologik qo'llab-quvvatlashga bog'liq. Ta'limda individual yondashuv, emotsional intellektni rivojlantirish va inklyuzivlik tamoyillariga amal qilish orqali nafaqat bilim, balki tarbiyaviy va psixologik yutuqlarga ham erishish mumkin.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ta'lim tizimi katta o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy talablarning ortishi hamda pandemiyadan keyingi davr tajribalari ta'lim jarayoniga yangicha qarashni taqozo etmoqda. An'anaviy o'qitish uslublari asta-sekin interaktiv, talaba markazli, raqamli vositalarga asoslangan usullar bilan almashmoqda. Masofaviy ta'lim, gibrid o'qitish, sun'iy intellekt yordamida individual yondashuv, virtual laboratoriyalar, multimediya vositalari orqali o'rganish bugungi ta'limning ajralmas qismiga aylangan.

Bu o'zgarishlar pedagogik jarayonning psixologik jihatlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.² Endilikda shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ichki motivatsiyasini uyg'otish, ijtimoiy-emotsional moslashuvini ta'minlash muhim bo'lib bormoqda. Bu esa o'qituvchidan faqatgina mutaxassislik bilimlari emas, balki chuqur psixologik savodxonlik, empatiya, kommunikativ qobiliyatlar va zamonaviy psixologik yondashuvlarni egallashni talab qiladi.

Shuningdek, bugungi ta'limda har bir o'quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari va o'zlashtirish darajasini inobatga oluvchi individual va differensial yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim, ya'ni nogironligi bor yoki o'zgacha rivojlangan bolalar bilan birgalikda o'qish tizimi ham keng joriy qilinmoqda. Bu holat o'qituvchi va psixologlar uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni, shaxsiylashtirilgan ta'lim rejalari asosida ishlashni talab qiladi.

Shu jihatdan qaraganda, zamonaviy ta'lim faqatgina akademik yutuqlarga emas, balki shaxsning ruhiy-psixologik holati, ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlash

² Azizxo'jaeva, N. (2003). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.



qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarga asoslanmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya psixologiyasining bugungi kundagi o'rnini va ahamiyatini yanada oshiradi. Masalan, bugungi kundagi maktab darsliklarini olsak, o'quvchi maktab darsliklaridan foydalanishi uchun yoki qandaydir uyga vazifalarni bajarish uchun internet tarmoqlarini yordamchi sifatida foydalanmasliklarini iloji yo'q. Chunki har bir mashq yoki uyga vazifa tagida QR kodlari keltirilgan bo'lib, o'quvchilar bu orqali internet tarmoqlariga joylangan ma'lumotlarni o'qib tahlil qilishadi.

³ Zamonaviy texnologiyalarning ta'lim tizimidagi o'ziga xos ahamiyatini quyidagilar orqali bilishimiz mumkin:

1. Masofaviy ta'lim platformalari (Zoom, Google Meet, Microsoft Teams)
 - O'quvchilar va talabalar istalgan joyda turib ta'lim olish imkoniga ega bo'ldilar. Bu ayniqsa pandemiya davrida dolzarb bo'ldi.
2. Elektron o'quv materiallari va raqamli kutubxonalar (Google Scholar, Ziyonet, Coursera, Khan Academy)
 - Kitob va darsliklarni yuklab olish, video darslar orqali mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi.
3. Sun'iy intellekt asosidagi yordamchi ilovalar (ChatGPT, Grammarly, Duolingo)
 - Til o'rganish, matn tahrirlash, savollarga tezkor javob olishda o'quvchilarga ko'maklashadi.
4. Interaktiv taqdimot va test dasturlari (Kahoot, Quizizz, Mentimeter)
 - Dars jarayonini jonlantirish, bilimlarni mustahkamlash va baholash jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.
5. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari (VR/AR)
 - Masalan, VR yordamida biologik laboratoriya tajribalarini amalga oshirish, tarixiy joylarni virtual sayohat qilish orqali o'rganish imkoniyati yaratilmoqda.
6. O'quvchilar faoliyatini monitoring qilish tizimlari (Learning Management Systems – Moodle, Edmodo)

³ Allayeva, M. (2017). Ta'limda zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya.



– O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi bog‘lanishni mustahkamlab, uy vazifalari, test natijalari va dars rejalari ustidan nazoratni osonlashtiradi.

⁴Ta‘lim jarayonida bola psixologiyasida ijtimoiylashuv o‘z ahamiyatiga ega. Avvalambor, bu so‘z nima ekanligiga e‘tibor bersak, ijtimoiylashuv — bu bolaning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy me‘yor va qadriyatlarni o‘zlashtirishi, boshqalar bilan samarali muloqotga kirishishi jarayonidir. Bu jarayon aynan ta‘lim muassasalarida — maktabgacha, maktab va oliy ta‘lim bosqichlarida faol rivojlanadi. Dars mashg‘ulotlari, guruhli ishlar, sinfdoshlar bilan o‘zaro hamkorlik, o‘qituvchilar bilan muloqot qilish — bularning barchasi bolaning ijtimoiy ko‘nikmalari shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Bola ta‘lim muhitida nafaqat bilim oladi, balki o‘z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarni eshitish, guruhda ishlash, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish kabi ko‘nikmalarni ham egallaydi. Bu esa uning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, emotsional intellekt, empatiya, liderlik, hamkorlik va ijtimoiy mas‘uliyat kabi fazilatlar ijtimoiylashuv jarayonida tarkib topadi.

Bugungi kunda zamonaviy ta‘lim tizimi individual yondashuv bilan bir qatorda, ijtimoiy jihatdan faollikni ham rag‘batlantiradigan metodlarni qo‘llamoqda. Masalan, loyihaviy ta‘lim, muammoli vaziyat asosida o‘qitish, rolli o‘yinlar va munozaralar ijtimoiylashuvni kuchaytiradi. Shuningdek, psixologik xizmatlar, sinf psixologlari bilan olib boriladigan treninglar bolalarning o‘zaro munosabatlaridagi to‘siqlarni yengishga yordam beradi.

Demak, ta‘lim jarayoni faqat bilim olish maydoni emas, balki bolalarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, ijtimoiy shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur muhitdir.

Bundan tashqari ta‘lim olish jarayonida bola oldiga yangi maqsadlar qo‘yadi. Bu esa fikrimcha, beriladigan motivatsiyalarga bog‘liq. Motivatsiya — bu o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va tashqi rag‘batlar ta‘sirida yuzaga keladigan o‘rganishga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Ta‘limda motivatsiya o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi, o‘rganish jarayonini samaraliroq va ongliroq

⁴ Salomova, D. (2014). Pedagogik psixologiya asoslari. Navoiy: Navoiy davlat pedagogika instituti nashriyoti.



qiladi. Yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchi bilimni chuqurroq egallaydi, mustaqil fikrlaydi va o'z ustida ishlashga intiladi.

Motivatsiya ikki xil bo'ladi: ichki motivatsiya va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya — bu o'quvchining o'z-o'zidan bilim olishga bo'lgan istagi; u ko'pincha qiziqish, maqsad, o'zini rivojlantirish istagi orqali yuzaga chiqadi. Tashqi motivatsiya esa baho, mukofot, ota-ona yoki o'qituvchi tomonidan rag'batlantirish kabi tashqi omillar bilan bog'liq.

Zamonaviy ta'lim metodikalarida motivatsiyani oshirish uchun quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

O'quv materiallarini o'quvchining real hayotiga bog'lab tushuntirish;

Loyihaviy va ijodiy topshiriqlar orqali darslarni qiziqarli qilish;

O'quvchining shaxsiy yutuqlarini e'tirof etish va rag'batlantirish;

Interaktiv o'qitish texnologiyalaridan foydalanish (masalan: testlar, viktorinalar, o'yinlar);

Individual yondashuvni qo'llash, ya'ni har bir o'quvchining qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish.

Shuningdek, o'qituvchining ruhiy qo'llab-quvvatlashi, mehribon, sabrli va rag'batlantiruvchi munosabati o'quvchilarda o'ziga ishonch va o'rganishga bo'lgan istakni kuchaytiradi.

Motivatsiya — muvaffaqiyatli ta'limning yuragi bo'lib, u orqali o'quvchi o'zining bilim olish jarayonidagi faol ishtirokchiga aylanadi. Bunga qo'shimcha qilib inklyuziv ta'lim haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tsak, Inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalar, jumladan jismoniy, aqliy yoki emotsional cheklovlarga ega o'quvchilarning ham birgalikda ta'lim olishini nazarda tutuvchi ta'lim tizimidir. U teng imkoniyatlar, inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy g'oyasi — har bir bola qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi mumkin bo'lgan muhitda ta'lim olishi kerak, degan yondashuvdir.



⁵Ushbu tizim orqali jamiyatda farqlilikni qabul qilish, boshqalarni tushunish va hurmat qilish kabi ijtimoiy qadriyatlar shakllanadi. Nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bor bolalar sog'lom tengdoshlar bilan birga o'qish orqali ijtimoiylashadi, o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladi.

Inklyuziv ta'limning samarali joriy etilishi uchun quyidagilar zarur:
maxsus pedagoglar va psixologlar bilan ta'minlangan maktablar;
ta'lim muassasalarida qulay va moslashtirilgan infratuzilma;
o'qituvchilarning inklyuziv metodika bo'yicha malakasini oshirish;
tolerantlik va empatiyani rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar.

Shuningdek, inklyuziv ta'lim shunchaki nogironlar uchun imkoniyat yaratish emas, balki har bir o'quvchining o'ziga xosligini e'tirof etish, farqlarni hurmat qilish va o'zaro o'rganishga yo'l ochishdir.

Inklyuziv ta'lim orqali ta'lim-tarbiya tizimi yanada insonparvar, adolatli va rivojlanishga ochiq bo'lib boradi. Bu esa jamiyatning barqaror va sog'lom shakllanishiga bevosita hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya hamma uchun birdek zarur. U orqali jamiyat rivojlanadi yoki ta'lim va tarbiyaga e'tiborsizlik bilan qaralsa, jamiyat qoloqlashadi hamda dunyo miqyosida o'z o'rnidan ajraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizxo'jaeva, N. (2003). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Ermatov, Sh. (2010). Psixologiya. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
3. Allayeva, M. (2017). Ta'limda zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Salomova, D. (2014). Pedagogik psixologiya asoslari. Navoiy: Navoiy davlat pedagogika instituti nashriyoti.
5. Xolikov, U. (2015). Yosh va pedagogik psixologiya fanidan ma'ruzalar matni. Navoiy: Navoiy davlat pedagogika instituti.

⁵ Xolikov, U. (2015). Yosh va pedagogik psixologiya fanidan ma'ruzalar matni. Navoiy: Navoiy davlat pedagogika instituti.